



**TUXUMDON KISTALARIDA UTT (ULTRATOVUSH  
TEKSHIRUVI)NING AHAMIYATI.**

*Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti*

*Toshboltayeva Rushana O'tkirjon qizi*

**Dolzarbligi.**

Tuxumdon kistalari ayollar orasida tez-tez uchraydigan ginekologik muammolardan biridir. Ayollarda uchraydigan ginekologik kasalliklar ichida 3-o'rinni egallaydi. Reproktiv yoshdagi ayollarning 20-25%ida uchraydi. Ularni vaqtida aniqlash va to'g'ri baholash kelajakdagi asoratlarning oldini olishda muhim. Shu sababli UTT hozirgi kunda eng qulay va xavfsiz tekshiruv usullaridan biri hisoblanadi.

**Maqsad.**

Tuxumdon kistalarini aniqlash va ularning turini farqlashda UTTning ahamiyatini ko'rsatish.

**Material va usullar.**

Amaliyotda tuxumdonlarni tekshirish uchun transabdominal va transvaginal UTT qo'llanadi. UTT bo'yicha tekshiruv usuli yordamida 50ta ayolda tekshirish olib borildi va ijobiy natija oldik. Tekshiruv davomida tuxumdon hajmi, kistaning o'lchami, devori, ichki tuzilishi va Doppler yordamida qon oqimi baholanadi.

**Natijalar.**

UTT yordamida tuxumdon kistalarining ko'pchiligini aniqlash mumkin. Tekshiruv o'tkazilgan 50ta ayollardan 12-13tasida aniq tuxumdon kistalarini ko'rish imkoni bo'ldi. Ayniqsa, transvaginal UTT kichik kistalarni topishda aniqroq natija beradi. UTT orqali follikulyar kista, sariq tana kistasi, endometrioid va dermoid kistalarni bir-biridan farqlash mumkin. Doppler rejimi



esa xavfli (malign) o'zgarishlardan shubhalanishga yordam beradi. Dinamik kuzatuvda UTT kistaning kamayishi yoki kattalashishini nazorat qilish imkonini beradi.

### **Xulosa.**

Ultratovush tekshiruvi (UTT) tuxumdon kistalarini aniqlashda birinchi navbatda qo'llaniladigan, eng qulay va xavfsiz diagnostika usuli hisoblanadi. Ushbu usul og'riqsiz, organizmga zarar yetkazmaydi va qisqa vaqt ichida aniq ma'lumot beradi. UTT yordamida kistaning o'lchami, joylashuvi, ichki tuzilishi va xususiyatlari baholanadi, bu esa funksional va organik kistalarni bir-biridan farqlash imkonini beradi. Bundan tashqari, Doppler rejimi orqali qon aylanishini tekshirish mumkin bo'lib, bu xavfli o'zgarishlarni erta aniqlashda muhim ahamiyatga ega. UTT dinamik kuzatuvda ham katta rol o'ynaydi, ya'ni kistaning o'sishi yoki kamayishini nazorat qilish orqali to'g'ri davolash taktikasini tanlashga yordam beradi. Shunday qilib, UTT tuxumdon kistalarini erta tashxislash, asoratlarning oldini olish va bemorni samarali davolashda muhim va ishonchli usul hisoblanadi.